E’LON

Pedagoglarning farzandlariga to‘lov-kontrakt summasi uchun 30 foiz miqdorida chegirma berilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 17-sentabrdagi 501-sonli “Pedagoglarning davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirgan va tahsil olayotgan farzandlarining to‘lov-kontrakt summasiga chegirma berish va ehtiyojmand oila farzandlarini zamonaviy kasblarga o‘qitish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab pedagoglarning farzandlariga to‘lov-kontrakt summasining 30 foizi miqdorida chegirma beriladi.

Mazkur imtiyozdan kimlar foydalanishi mumkin?

Davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga yangi qabul qilingan pedagoglarning farzandlari;

Davlat oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan pedagoglarning farzandlari.

Imtiyozdan foydalanish shartlari:

Talabaning pedagog farzandi ekanligi uning ota-onasidan biri tegishli axborot tizimida pedagogik faoliyat bilan bog‘liq lavozimlar ro‘yxatiga kiritilgan lavozimda faoliyat yuritishi orqali tasdiqlanishi lozim.

Chegirma qanday qoplanadi?

Belgilangan 30 foizlik chegirma bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

Mazkur imtiyoz pedagog xodimlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda farzandlarining oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Batafsil ma’lumot olish uchun O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filialining mas’ul xodimlariga murojaat qilishingiz mumkin.

O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti Nukus filiali ma’muriyati